

O'QITUVCHILARNI VIRTUAL TEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHDA ISPRING DASTURINING IMKONIYATLARI VA UNI METODIKASI

Abdugapparova Nazokat Sayfulla qizi
Olmalik davlat texnika instituti, assistant

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'qituvchilarning virtual texnologiyalar sohasidagi kompetentligini rivojlantirishda iSpring dasturining o'rnini, uning funktsional imkoniyatlari va pedagogik jarayonda qo'llash metodikasi yoritilgan. Raqamli ta'lim sharoitida o'qituvchilardan zamonaviy elektron ta'lim resurslarini yaratish, interaktiv dars modullarini ishlab chiqish hamda masofaviy ta'limni samarali tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, iSpring Suite platformasi o'quv kurslari, video-ma'ruzalar, interaktiv testlar, simulyatsiyalar va SCORM standartiga mos elektron o'quv materiallarini yaratish imkonini beruvchi qulay multimedia vositasi sifatida tahlil qilingan. Maqolada iSpring dasturining asosiy komponentlari — iSpring QuizMaker, iSpring TalkMaster, iSpring Cam, iSpring Converter Pro va Learning Course Creator modullarining o'qituvchilar malakasini oshirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'quv materiallarini bosqichma-bosqich loyihalash, interaktivlikni oshirish, baholash tizimlarini integratsiya qilish va kurslarni LMS muhitiga joylashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar beriladi. Tadqiqot jarayonida iSpring asosida yaratilgan elektron kurslar o'qituvchilarning virtual texnologiyalarni o'zlashtirish darajasini oshirishga, o'quv jarayonini individuallashtirishga hamda masofaviy ta'limning samaradorligini ta'minlashga xizmat qilishi asoslab berilgan. Tahlillar natijasida iSpring dasturidan foydalanish o'qituvchilarning raqamli pedagogika kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi, ularning metodik ijodkorligini qo'llab-quvvatlashi va zamonaviy ta'lim jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil etishga yordam berishi xulosasi chiqarilgan.

Kalit so'zlar: virtual texnologiyalar, raqamli kompetensiya, iSpring Suite, elektron ta'lim resurslari, interaktiv kurs, masofaviy ta'lim, raqamli pedagogika, o'qituvchi malakasi, o'quv moduli, multimedia ta'lim vositalari.

Kirish

Hozirgi globallashtirish jarayonida ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi o'qituvchilar oldiga yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llash, elektron o'quv resurslarini yaratish va masofaviy ta'limni samarali tashkil etish kabi zamon talablari

bilan bog'liq vazifalarni qo'yimoqda. Shu bois o'qituvchilarning virtual texnologiyalar sohasi bo'yicha kompetentligini rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda iSpring Suite dasturi ta'lim jarayonini raqamlashtirishda eng samarali vositalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Platforma o'quvchi va o'qituvchilarga interaktiv kurslar yaratish, multimedia darsliklarini tayyorlash, testlar tuzish, simulyatsiyalar ishlab chiqish, hamda SCORM standartiga mos elektron o'quv materiallarini shakllantirish imkonini beradi. iSpring dasturining qulay interfeysi, PowerPoint bilan uyg'un ishlash mexanizmi, o'zida bir nechta modullarni jamlagan kompleks yechim sifatidagi funktsionalligi uni pedagogik faoliyatda keng qo'llashga imkon yaratadi. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchilarni iSpring dasturidan samarali foydalanishga o'rgatish ularning raqamli kompetensiyalarini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va o'quv jarayonini innovatsion ruhda tashkil etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada iSpring dasturining imkoniyatlari, pedagogik jarayonda qo'llash usullari hamda uni o'qitish metodikasi ilmiy-uslubiy jihatdan o'rganiladi.

Asosiy qism.

Mazkur mavzuni o'qitishda o'qitishning 2 pog'onali metodidan foydalanamiz.

1-pog'ona. Tushuntirish-qiziqtirish (motivatsiya), ma'lumot va yo'riqnoma berish.

Amaliyot o'qituvchisi avval bu yo'riqnomani berishni o'quv xonasida yoki ish o'rnida o'tkazish maqsadga muvofiqligini hal qiladi. Bu esa, yo'riqnomaning mohiyati va turiga bog'liq. U yo'riqnoma vaqti 20-40 daqiqadan oshib ketmasligini rejalashtiradi.

Multimediali elektron o'quv kurslarni yaratish imkoniyatini beruvchi pedagogik dasturiy vositalar ichida yuqori reytingga ega bo'lgan iSPRING dasturi haqida to'xtalib o'tamiz.

iSPRING Free dasturi .PPT, .PPTX, .PPS, .PPSX formatdagi fayllarni Flash (.SWF) va HTML5 formatiga konvertatsiyalash imkoniyatini beradigan mualliflik dasturi hisoblanadi.

Dastur orqali foydalanuvchilar Flash - roliklar va YouTube video resurslarni Power Point taqdimot slaydlariga joylashtirishlari mumkin.

Xususan:

Yaratiladigan elektron o'quv kontentlarni SCORM va TinCan tizimlarga o'tkazish imkoniyatini beradi, bu esa ixtiyoriy LMS (Learning management system) bilan integratsiyalashtirish mumkin degani.

Power Point dasturida yaratilgan taqdimot faylining xajmini 97% gacha siqish imkoniyati mavjud.

Power Point dasturida yaratilgan taqdimot faylining himoyalashini ta'minlaydi.

Ushbu paket o'z ichiga 3 ta dasturiy modulni oladi. Ular yordamida audio, video, interaktiv elementlar va testlar bilan boyitilgan onlayn taqdimot materiallari va o'quv kurslari, har xil so'rovnomalar, anketalar, interaktiv testlar, 3D kitob kabi bir qancha elektron nashrlar tashkil etish imkoniyati mavjud (2-ilo va 1-rasmga qarang).

Tinglovchi: Bu dasturda elektron testlar qanday yaratiladi?

O'qituvchi: Elektron testlar yaratish uchun muloqat oynasidagi Testi bandi tanlanadi va ekranda quyidagi oyna paydo bo'ladi

Hosil bo'lgan oynadan "Новый тест" bandi tanlanadi va quyidagi oyna ochiladi

Ochilgan oynadan "Вопрос" buyrug'i yoki klaviaturadan Ctrl+M tugmalar bosiladi.

Tinglovchi: Dastur boshqa elektron testlar yaratish dasturlaridan nimasi bilan ajralib turadi?

O'qituvchi: Dastur boshqa elektron testlar yaratish dasturlaridan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

dasturning ishchi fayli ixtiyoriy kompyuterga ko'chirib qo'yilishi va ishlashi mumkin;

juda kam amallar ketma-ketligi bajariladi;

maxsus bilimlar talab etilmaydi;

testlarning 11 xil turini yaratish mumkin;

test savollari va javoblariga rasm, formula va video joylashtirish mumkin;

test natijalari to'g'ridan to'g'ri elektron pochtaga jo'natiladi;

dastur litsenziyaga ega va ochiq kalitli ekanligi.


O'rganilayotgan mavzu bo'yicha ishni bajarishga qaratilgan topshiriq yuzasidan yo'riqnoma tinglovchilarning qiziqishini uyg'otishdan boshlanadi, chunki ularning qiziqish va e'tibori o'rganilayotgan narsaga qaratilishi kerak.

Kompyuterga iSpringSuite dasturlar paketi o'rnatilgach, iSpring Quiz Maker bloki yordamida elektron testlar tuzish imkoniyati mavjud. Testlar bazasi yaratilgach, darsning qaysi qismida foydalanishiga qarab testlar soni va test o'tkazish vaqti belgilanadi. Interfeys ko'rinishini foydalanuvchi ixtiyoriga ko'ra o'zgartirish mumkin. Tayyor testlar bazasini yaratib bo'lgach, uni lokal tarmoq uchun, global tarmoq uchun, hujjat shaklda (MSWord) yoki LMS tizimi uchun saqlash imkoniyati mavjud. Dasturda yaratilgan elektron testlar bazasi ishchi fayli .swf formatda saqlanadi.

Tinglovchi: Dasturda test savollarining qanday ko'rinishlarini yaratish mumkin?

O'qituvchi: Dasturda test savollarining quyidagi ko'rinishlarini yaratish mumkin:

1. Bitta javobli test (*Выбор одного ответа*);
2. Ko'p javobli test (*Выбор нескольких ответов*);
3. "To'g'ri - noto'g'ri" ko'rinishdagi test (*Верно/Неверно*);



4. Yopiq test (*Краткий ответ*);
5. Sonni kiriting testi (*Числовой ответ*);
6. Javoblarni tartiblash testi (*Последовательность*);
7. O‘zaro moslik o‘rnatish testi (*Соответствие*);
8. Bo‘sh joylarni to‘ldiring testi (*Заполнить пропуски*);
9. Javoblari keltirilgan savol testi (*Выбор из списков*);
10. So‘zlar banki testi (*Перетаскивание слов*);
11. Faol hududni aniqlovchi savol testi (*Выбор области*).

2-pog‘ona. Nima qilishni ko‘rsatib berish – namoyish qilish.

Bu pog‘onada amaliyot o‘qituvchisi tushuntirgan test turlarini o‘zi bajarib, namoyish qilib ko‘rsatadi. Buning uchun u avval kerakli ish o‘rnini puxtalik bilan tayyorlab qo‘ygan bo‘ladi va o‘sha ish o‘rnida namoyishni o‘tkazadi. Ishni bajarish uchun kerakli barcha instrumentlar xom ashyolar va ish rejasi hamda kerak bo‘lsa, tegishli sharoit tayyorlab qo‘yilgan bo‘lishi kerak.

Namoyish qilayotgan paytda amaliyot o‘qituvchisi tinglovchilarning diqqat bilan kuzatib turishlarini ta‘minlaydi. Har bir harakatni 3 martadan namoyish qilib ko‘rsatish tavsiya etiladi. Ular quyidagicha bajariladi:

namoyish oddiy tezlikda o‘tkaziladi, tinglovchilarda kasbiy harakatning amalda qanday bajarilishi to‘g‘risida to‘la va haqiqiy tasavvur paydo bo‘lishi kerak;

namoyish atayin sekin tezlikda o‘tkaziladi, har bir bosqichni alohida va o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq ko‘rsatish hamda mehnat xavfsizligi qoidalarini tushuntirish kerak;

namoyish oddiy tezlikda o‘tkaziladi, ishni bajarish harakati ko‘nikmasini yana bir marta to‘la ravishda ko‘rsatish va tinglovchilarda «ichki sur‘at» ya‘ni, harakatni bajarish usuli, tartibi, ketma-ketligi, tezligi to‘g‘risida aniq tasavvur paydo bo‘lishi kerak. Namoyish qilayotgan paytda amaliyot o‘qituvchisi har bir harakatini izohlab boradi. Shundan so‘ng bevosita instruktaaj qismi tugaydi.

Ispring QuizMaker modulini ishga tushirish quyidagicha amalga oshiriladi: ПУСК → Все программы → iSpring Suite 9 → iSpring QuizMaker.

Dastur oynasidan



Новый тест

bandi tanlanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan test turlarini yaratish ketma - ketligi quyidagicha amalga oshiriladi:


1. Bitta javobli testni yaratish uchun dastur

oynasidagi

*“Выбор одного
ответа”*

tugmasi


tanlanadi. Bu test
turida javob
variantlarini
keraklicha
ko'paytirish




mumkin. Savolga tasvir, ovozli fayl va video fayl
qo'shish, javob variantlariga tasvirli fayllarni
ilova qilish mumkin. “Удалить” tugmasi yordamida javob variantlarini o'chirish
mumkin. Quyidagi rasmda misol keltirilgan

2. Ko'p javobli testni yaratish uchun dastur oynasidagi *“Выбор нескольких ответов”*
tugmasi tanlanadi. Bunda savolga tegishli bir yoki bir necha javob variantini belgilash
mumkin. Bu test turida ham javob variantlarini keraklicha ko'paytirish mumkin.
Savolga tasvir, ovozli fayl va video fayl qo'shish, javob variantlariga tasvirli fayllarni
ilova qilish mumkin. “Удалить” tugmasi yordamida javob variantlarini o'chirish
mumkin. Quyidagi rasmda misol keltirilgan (2-ilova 8-rasmga qarang).


3. “То'g'ri - noto'g'ri”
ko'rinishdagi testni yaratish uchun dastur
oynasidagi *“Верно-неверно”* tugmasi
tanlanadi. Bu savol turida javob faqat
“to'g'ri” yoki “noto'g'ri” bo'lishi
mumkin, ya'ni boshqa javob variantlarini
qo'shib bo'lmaydi. Quyidagi rasmda misol
keltirilgan.




4. Yopiq testni yaratish uchun dastur oynasidagi *Kраткий ответ* tugmasi tanlanadi. Bu test turida javob variantini test topshiruvchi klaviaturadan kiritadi. Ammo tuzuvchi barcha kiritilishi mumkin bo'lgan javob variantlarini avvaldan kiritib qo'yishi kerak. Javob variantiga tasvir qo'shish mumkin emas. Quyidagi rasmda misol keltirilgan (2-ilova 10-rasmga qarang).




5. O'zaro moslik o'rnatish testni yaratish uchun dastur oynasidagi *Совместимость* tanlanadi. Juda qiziq test turi hisoblanib, bir savolning o'zida bir necha savollar banki yig'ilgan bo'ladi. Quyidagi rasmda misol keltirilgan (2-ilova 11-rasmga qarang).



6. Javoblarni tartiblash testni yaratish uchun dastur oynasidagi *Последовательность* tugmasi tanlanadi. Tartibsiz holda berilgan javoblarni to'g'ri tartibda yozish kerak bo'lgan holda ushbu test turidan foydalaniladi. Quyidagi rasmda misol keltirilgan (2-ilova 12-rasmga qarang).




7. Sonli kiriting testni yaratish uchun dastur oynasidagi *Числовой ответ* tugmasi tanlanadi.




Sonli ko'rinishdagi javob berilishi kerak bo'lgan savollar uchun ushbu test turidan foydalaniladi. Bunda javobda ma'lum sondan katta, kichik, katta yoki teng, kichik yoki teng, teng emas kabi variantlardan foydalanish mumkin. Quyidagi rasmda misol keltirilgan.

8. Bo'sh joylarni to'ldiring testni yaratish uchun dastur oynasidagi *"Заполнить пропуски"* tugmasi tanlanadi. Bunda savol tarkibidagi bo'sh joylarga kerakli javoblarni klaviatura yordamida kiritiladi.



YA'ni to'g'ri javobni ko'rsatilgan joyga yozish


talab etiladi. Bunda test tuzuvchi tomonidan bo'sh joylar bitta yoki bir necha joylashtirish mumkin. Quyidagi rasmda misol keltirilgan.




9. Javoblari keltirilgan savol testni yaratish uchun dastur oynasidagi *"Выбор из списков"* tugmasi tanlanadi. Savolning bo'sh qismlarida javoblar variantlari keltirilgan bo'ladi, ushbu javob variantlardan

to'g'risini belgilash mumkin. Quyidagi rasmda misol keltirilgan (2-ilova 15-rasmga qarang).

10. So'zlar banki savol testni yaratish uchun dastur oynasidagi *"Перетаскивание слов"* tugmasi tanlanadi. Bu savol turida so'zlarni kerakli joyga joylashtirish talab etiladi. Bo'sh joylar va ushbu joylarga so'zlar banki keltirilgan bo'ladi. Quyidagi rasmda misol.



11. Faol hududni aniqlovchi savol testni yaratish uchun dastur oynasidagi *"Выбор области"* tugmasi tanlanadi. Bu savol turida rasm beriladi va ushbu rasmning kerakli qismi javob sifatida belgilanadi. Javob berish jarayonida sichqoncha yordamida kerakli qism tanlanadi. Quyidagi rasmda misol keltirilgan.



Xulosa

Mazkur maqolada metodik tizimni amalga oshirish bosqichlari qarab chiqilgan bo'lib, mazkur bosqichlarga muvofiq, maktablarda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar uchun elektron ta'lim va masofaviy ta'lim texnologiyalari aspektlari bo'yicha kasbiy rivojlanish darajalarini aniqlangan. Nazariy bosqich o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan hamda tinglovchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan va ularning

kompetensiyalarini faollashtirishga imkon beradigan elektron ta'lim va masofaviy ta'lim texnologiyalarining turli nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini ochiq masofaviy ta'lim kurslarini o'z ichiga olgan.

Taklif etilayotgan tarkibga muvofiq ishlab chiqilgan elektron o'quv-uslubiy majmualar "Pedagogika" ixtisosliklari bo'yicha davlat ta'lim standartlari talablariga javob beradi, o'qituvchilarni kasbiy malakasini oshirish jarayonida kasbiy rivojlanishlari uchun elektron (masofaviy, aralash) ta'lim sohasida samarali shart-sharoitni yaratadi.

Mazkur interfaol testlarni rasm, ovoz va formulalar yordamida boyitish imkoniyati mavjudligi ularni yanada qiziqarli va tinglovchini katta ishtiyoq bilan ishlashga chorlaydi. Oddiy testlardan foydalanish savollari tuzishda ma'lum bir chegarani hosil qiladi. Xususan, musiqa fani o'qituvchisi faqat nazariyadan savollar tuzishi mumkin, bu dastur yordamida biror bir musiqadan parcha qo'yib savollar tuzish imkoniyatini yaratadi. Boshqa yo'nalishlarda ya'ni, matematika, fizika, biologiya, geografiya kabi fan o'qituvchilari ham juda qiziq, interfaol testlar tuzish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdinazarova Z.X. Pedagogik texnologiyalarning tinglovchilar aqliy taraqqiyotiga psixologik ta'siri. Psix.fan.nomz...diss.- T.:, 2012. – 144 b.
2. Abduqodirov A.A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. / Abduqodirov A.A., Pardaev A.X.,; red. M. Sodiqova. -T.: O'zbekiston Respublikasi FA "FAN" nashriyoti, 2009. -145 s.
3. Askarov A.D. Xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish. Avtoref. diss. p.f.f.d. 2017. – 51 s.
4. Baxodirova U.B. Mikrobiologiya fanini o'qitishda virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish. Dissertasiya avtoreferati. –Qarshi. -2020. –49 b.
5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Dis. ... ped. fan. d-ri.– T.: 2007.
6. Begimqulov U.Sh. va boshqalar. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T.:Fan, 2011. 232 b.
7. Berdibayev M.S. Bo'lajak matematika o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish. Dissertasiya PhD: 13.00.05. –T.: 2019. -125-b.
8. Boymurodova G.T. Malaka oshirish tizimini modernizatsiyalash jarayonida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish mexanizmi. Avtoref. diss. p.f.f.d. 2021. – 68 s.
9. Dillenbourg P. What Do You Mean by 'Collaborative Learning'? / P. Dillenbourg // Collaborative-learning: Cognitive and Computational Approaches. – 1999. – (Vol. 1). –P. 1-15.
10. Ezekoka G. K. Maximizing the Effects of Collaborative Learning through ICT / G. K. Ezekoka // Procedia - Social and Behavioral Sciences. –2015. – (176). – P. 1005-1011.